



RELIGIOUS, SOCIAL, AND AXIOLOGICAL ASPECTS OF THE FATHERLY PHENOMENON

Gulchekhra Abdulkarimovna Karimova

Acting Associate Professor of the Department of
"Humanities" of the Tashkent University of Information
Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,
Doctor of Philosophy (PhD)
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: paternity phenomenon, spirituality, religion, social value, axiology, responsibility, family, humanism, upbringing, maturity.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article illuminates the religious, social, and axiological aspects of the paternity phenomenon based on philosophical analysis. Fatherhood is considered a symbol of sacred responsibility, guidance, and spiritual maturity in human life. In religious sources, the father is interpreted as the support of the family, the main formative factor of upbringing and faith. From a social point of view, fatherhood is considered as a guarantee of the stability of society and the continuity of moral values. In the axiological approach, fatherhood is assessed as a phenomenon embodying such high human values as love, dedication, and responsibility. The article reveals the philosophical foundations of the development of paternal culture in the context of New Uzbekistan, its harmonization with spiritual policy and social life.

OTALIK FENOMENINING DINIY, IJTIMOY VA AKSILOGIK JIHATLARI

Gulchekhra Abdulkarimovna Karimova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalar universiteti "Gumanitar fanlar" kafedrası
dotsenti v.b. falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: otalik fenomeni, ma'naviyat, din, ijtimoiy qadriyat, **Annotatsiya:** Ushbu maqolada otalik fenomenining diniy, ijtimoiy va aksiologik

aksiologiya, mas'uliyat, oila, insonparvarlik, tarbiya, yetuklik.

jihatlari falsafiy tahlil asosida yoritiladi. Otalik inson hayotidagi muqaddas mas'uliyat, rahnamolik va ma'naviy yetuklik timsoli sifatida qaraladi. Diniy manbalarda ota oilaning tayanchi, tarbiya va e'tiqodning asosiy shakllantiruvchisi sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan esa otalik jamiyat barqarorligi, axloqiy qadriyatlar uzviyligining kafolati sifatida ko'riladi. Aksiologik yondashuvda esa otalik — muhabbat, fidoyilik va mas'uliyat kabi yuksak insoniy qadriyatlarni mujassamlashtiruvchi fenomen sifatida baholanadi. Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida otalik madaniyatini rivojlantirish, uni ma'naviy siyosat va ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashtirishning falsafiy asoslari ochib beriladi.

РЕЛИГИОЗНЫЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФЕНОМЕНА ОТЦОВСТВА

Гулчехра Абдукаримовна Каримова

и.о. доцента кафедры “Гуманитарных наук”

Ташкентского университета информационных

технологий имени Мухаммада аль-Хорезми,

доктор философии (PhD)

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	феномен	Аннотация:
отцовства, духовность,	религия,	В данной статье
социальная ценность,	аксиология,	освещаются религиозные, социальные и
ответственность, семья,	гуманизм,	аксиологические аспекты феномена
воспитание, зрелость.		отцовства на основе философского анализа.
		Отцовство рассматривается как символ
		священной ответственности, руководства и
		духовной зрелости в жизни человека. В
		религиозных источниках отец трактуется
		как опора семьи, главный формирующий
		воспитания и веры. С социальной точки
		зрения отцовство рассматривается как
		гарантия стабильности общества,
		целостности нравственных ценностей. В
		аксиологическом подходе отцовство
		оценивается как феномен, воплощающий в
		себе такие высокие человеческие ценности,
		как любовь, самоотверженность и
		ответственность. В статье раскрываются
		философские основы развития культуры
		отцовства в условиях Нового Узбекистана,
		ее гармонизации с духовной политикой и
		общественной жизнью.

Kirish. Otalik fenomeni jamiyat hayotida chuqur ijtimoiy va ma'naviy mazmunga ega bo'lgan hodisadir. Ota shaxsining mavjudligi oila institutining barqarorligini, farzandlarning ma'naviy shakllanishini va jamiyatning axloqiy poydevorini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ota nafaqat biologik mavjudot sifatida, balki ma'naviy mas'uliyat, fidoyilik, oilaning himoyachisi va rahbari sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois otalik fenomeni insoniyat tarixida har doim e'tibor markazida bo'lib kelgan: qadimgi diniy manbalardan tortib, zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda otalikning ijtimoiy ahamiyati qayta-qayta ta'kidlanadi.

Ota oilaning axloqiy va ruhiy markazi bo'lib, uning xulq-atvori, qarashlari va qadriyatlari farzandlar ongida insonparvarlik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi fazilatlarining shakllanishiga asos bo'ladi. Ma'naviy jihatdan otalik, avvalo, mehr, sabr va adolat timsoli bo'lib, u o'z o'rnida jamiyatda ishonch, tartib va totuvlik muhitini mustahkamlaydi.

Otaning ijtimoiy mas'uliyati uning oila oldidagi majburiyatlari bilan chegaralanmaydi – u jamiyatdagi axloqiy me'yorlarning saqlovchisi va yangi avlodga yo'lboshchi sifatida faoliyat yuritadi. Bugungi globallashuv davrida otalik qadriyatining zaiflashuvi, mas'uliyatning pasayishi va “yo'qolgan otalik” hodisalari jamiyatning ma'naviy poydevoriga tahdid solmoqda. Shu sababdan, otalik fenomenini qayta tiklash, uni milliy, diniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, yosh avlodni mas'uliyatli ota bo'lish ruhida tarbiyalash bugungi kunda jamiyat barqarorligi va ma'naviy yuksalishining muhim shartidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, otalik fenomeni qadimdan diniy, falsafiy va ijtimoiy tafakkurda inson ma'naviyatining markaziy elementi sifatida talqin etilgan. Islom manbalarida ota - oilaning rahnamosi, tarbiyaning asosiy mas'uli va axloqiy namunadorlik timsoli sifatida yuksak maqomda e'tirof etiladi. G'arb falsafasida (E. Fromm, J. Lacan, S. Kierkegaard va boshqalar) otalik shaxsning mas'uliyatli erkinligi, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi kuch sifatida izohlangan. Mahalliy olimlar esa otalikni milliy tarbiya va ma'naviy barqarorlikning tayanch tamoyili sifatida tahlil qilganlar. Adabiyotlar tahlili otalik fenomenining aksiologik (qadriyatli), diniy (e'tiqodiy) va ijtimoiy (jamiyat barqarorligiga oid) o'lchovlarda o'zaro uyg'unligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy davrda otalik qadriyatining susayishiga bir qator ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillar sabab bo'lmoqda. “Avvalo, globallashuv va individualizmning kuchayishi natijasida oila institutining qadri pasaydi, otaning jamiyatdagi an'anaviy roli zaiflashdi. Migratsiya jarayonlari ko'plab otalarni oiladan uzoqlashtirib, farzand tarbiyasida bo'shliq paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shuningdek, ommaviy madaniyat va ayrim axborot vositalarida erkaklik va otalik mas'uliyati yengil, iste'molchilik nuqtai nazaridan talqin qilinmoqda. Gender tengligi

g'oyalari noto'g'ri talqin etilganda esa otalikning tabiiy rahbarlik va mas'uliyat funksiyasi e'tibordan chetda qolmoqda"[1]. Natijada, ota shaxsining tarbiyaviy va ma'naviy ta'siri kamayib, yosh avlodda otaga nisbatan hurmat, itoat va ishonch qadriyatlari susaymoqda. Shu bois, otalik qadriyatini qayta tiklash – jamiyat ma'naviy tiklanishining muhim shartidir.

Otalik – inson mavjudligining ijtimoiy-madaniy shakli bo'lib, u biologik jarayon bilan chegaralanmaydi, balki jamiyat va madaniyatda shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlar orqali o'z mazmunini topadi. Ota bo'lish – shunchaki farzandning mavjudligi emas, balki unga ma'naviy yo'l ko'rsatish, hayotiy tajriba va axloqiy qadriyatlarni uzatish mas'uliyatidir. Shu jihatdan otalik insonning ijtimoiy mohiyatini ifodalaydi: u orqali inson o'z "men"ini boshqalar orqali, ya'ni farzand va oila orqali anglaydi. Madaniy nuqtai nazardan otalik – avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ta'minlovchi ijtimoiy institutdir. Har bir jamiyat o'z tarixiy va madaniy an'alariga ko'ra otalik idealini shakllantiradi: ayrim madaniyatlarda ota – oilaning rahbari va himoyachisi, boshqalarida esa – mehribon yo'l ko'rsatuvchi va tarbiyachi sifatida talqin etiladi. Bu holat shuni anglatadiki, otalik modeli ijtimoiy tuzilma, madaniy qadriyatlar va diniy e'tiqod bilan chambarchas bog'liq.

Otalikning ijtimoiy-madaniy shakli sifatida mavjudligi shaxsni mas'uliyatli, adolatparvar, fidoyi va mehribon inson sifatida kamol toptiradi. U orqali jamiyatda axloqiy barqarorlik, avlodlar o'rtasidagi uzviylik va ijtimoiy totuvlik ta'minlanadi. Shu bois, otalik fenomeni – inson mavjudligining eng muhim ijtimoiy-madaniy ifodasi bo'lib, u jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi doimiy qadriyat sifatida ahamiyat kasb etadi.

"Ota" timsoli tarixiy-falsafiy manbalarda turlicha, lekin ko'pincha uzviy umumiy mavzular – mas'uliyat, ma'rifat, axloqiy namunaviylik va ijtimoiy tartib – doirasida talqin qilingan. Forobiyning falsafiy-siyosiy asarlarida oilaviy munosabatlar, jumladan ota roli, ideal jamiyatning kichik birligi – oiladan boshlanishi fikri orqali ko'tariladi. Forobiy uchun mukammal hukmdor va mukammal shaxs xususiyatlari oilada shakllanadi; ota esa avlodni axloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalaydigan birinchi muallim sanaladi. Shu nuqtai nazardan ota timsoli shaxsiyatning etik va ijtimoiy kamolotiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy institut sifatida qadrga sazovor.

Konfutsiy qadimgi Xitoy falsafasida ota timsoli markaziy ahamiyatga ega: "u "xiao" – farzandning ota-onaga bo'lgan hurmati (filial piety) g'oyasini rivojlantiradi. Konfutsiy uchun ota nafaqat oilaning boshlig'i, balki jamiyat axloqiy tartibini saqlovchi hamda an'anaviy marosimlar (ritual) orqali axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatuvchi figuradir"[2].

Ota misoli – shaxsning ijtimoiy va axloqiy majburiyatini anglashida boshlang'ich modelni tashkil etadi. Platon va Aristotel kabi klassik falsafiy manbalar ham ota roliga e'tibor qaratadi – ular oilani ideal davlat va shaxs tarbiyasining boshlanish nuqtasi sifatida ko'rgan.

Ibn Sino antropologik va etika nuqtai nazaridan ota-ona va farzand aloqalarini inson ruhiy kamoloti kontekstida ko'rib chiqadi. U "ontologik va epistemologik ta'limotlarda ota roli – tarbiya va bilimning uzatilishi vositasi ekanini ta'kidlaydi"[3]. Ibn Sinoga ko'ra, intellektual tarbiya va axloqiy yo'l-yo'riq ota orqali ota-ona muhitida boshlanadi; bu esa shaxsning rasional jihatdan shakllanishiga asos bo'ladi. Umuman olganda, tarixiy-falsafiy manbalar ota timsolini ijtimoiy tartib, axloqiy hodisa va ma'naviy uzatuvchi sifatida birlashtiradi: ota – nafaqat biologik, balki jamiyat va madaniyatning davomiyligini ta'minlovchi figura hisoblanadi.

Avgustin (Saint Augustine) nasroniy falsafiy va teologik merosida ota timsoli ruhiy, ma'naviy hamda axloqiy yo'l-yo'riqning metafizik manbai sifatida ko'riladi. Pater familias – oiladagi ma'naviy rahbar bo'lib, uning vazifasi nafaqat dunyoviy mas'uliyatni, balki ruhiy yo'l-boshchilikni ham o'z ichiga oladi. Avgustin ota-farzand munosabatlarini Xudo bilan munosabatlar kontekstida talqin qilib, ota mas'uliyati va pushaymonlik, mehr-rahm kabi xristian axloqiy fazilatlarining uzatuvchisi ekanini urg'ulaydi.

E.Fromm zamonaviy psixanalitik va sotsiologik nuqtai nazardan otaning rolini tahlil qiladi. Frommning fikricha, "otalik ikki qarama-qarshi modelda namoyon bo'lishi mumkin: avtoritar, hokimiyatga asoslangan otalik yoki mehrga, hurmatga va shaxsiy erkinlikka tayangan ota"[4]. Fromm ota timsolini insonning ichki o'sishi va jamiyatning sog'lom ijtimoiy munosabatlari uchun hal qiluvchi omil deb biladi; modernizatsiya va iqtisodiy o'zgarishlar ota-farzand aloqalarini zaiflashtirishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.

Otalik va mas'uliyat, mehr, g'amxo'rlik, himoya hamda axloqiy yetuklik o'rtasidagi bog'liqlik insonning ijtimoiy-madaniy mavjudligi va ma'naviy kamolotini ifodalovchi eng muhim falsafiy bog'lanishlardan biridir. Ota shaxsi jamiyatda nafaqat oila rahbari yoki iqtisodiy ta'minotchi sifatida, balki ma'naviy-axloqiy yo'l ko'rsatuvchi, mehr-muruvvat timsoli sifatida qaraladi. Shu bois otalik fenomeni mas'uliyat hissi bilan bevosita bog'langan: haqiqiy ota bo'lish – faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki uning ma'naviy o'sishi, axloqiy shakllanishi va insoniy qadriyatlarni anglashida doimiy ishtirok etish demakdir.

Mas'uliyat otalikning falsafiy markazida turadi. U insonning ongli tanlovi, o'z harakati va qarorlarining oqibatlarini his etish qobiliyatini bildiradi. Ota farzandi hayoti uchun mas'ul ekanligini anglab, uni to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, hayotda maqsadli va halol bo'lishga o'rgatadi. Mas'uliyatsiz otalik esa, aksincha, ma'naviy bo'shliqni, axloqiy zaiflikni keltirib chiqaradi. Shu jihatdan otaning mas'uliyati – jamiyatdagi axloqiy barqarorlikning kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Mehr va g'amxo'rlik otalikning ruhiy-axloqiy asosini tashkil etadi. Ota mehrini ko'rsatar ekan, farzandda ishonch, o'ziga hurmat va insoniylik hissi shakllanadi. Ota mehrining yo'qligi esa bolada begonalik, qo'rquv, yoki befarqlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun otalik mehrini

namoyon etish – insoniy yuksaklik belgisi bo‘lib, u g‘amxo‘rlik amaliyoti orqali ifodalanadi. G‘amxo‘rlik otaning o‘z farzandi hayoti uchun doimiy e‘tibor, himoya va tayanch sifatida namoyon bo‘lishini anglatadi.

Himoya otalikning tabiiy vazifasidir. Bu faqat jismoniy himoya emas, balki ma‘naviy va axloqiy himoya – farzandni yomon odatlar, axloqsizlik, beparvolik va zararli g‘oyalardan asrashdir. Ota himoyachilik vazifasini bajargan sari, jamiyatda barqarorlik, ishonch va totuvlik mustahkamlanadi. Shu sababdan, otaning himoyachilik roli – oila va jamiyat xavfsizligining falsafiy poydevoridir.

Axloqiy yetuklik esa otalikning cho‘qqisidir. Yetuk ota o‘z harakatida halollik, adolat, sabr, kechirimlilik, fidoyilik kabi fazilatlarni mujassamlashtiradi. U o‘z hayoti bilan farzandiga ibrat bo‘ladi, chunki axloqiy namunaviylik so‘zdan ko‘ra kuchliroq tarbiyaviy ta‘sirga ega. Axloqiy yetuk ota – oilaning ruhiy ustuni, jamiyatning ma‘naviy ko‘zgusidir.

Demak, otalik – bu mehr, mas‘uliyat, g‘amxo‘rlik, himoya va axloqiy yetuklikdan iborat yaxlit tizimdir. Bu elementlardan biri zaiflashsa, otalik fenomenining butun ma‘naviy mazmuni yo‘qoladi. Shu bois haqiqiy otalik, eng avvalo, insonning o‘zligini anglash, boshqalar taqdiriga befarq bo‘lmaslik va jamiyat oldidagi ma‘naviy burchini his etishdan boshlanadi. Ota shaxsi ana shu fazilatlar orqali nafaqat farzandini, balki butun jamiyatni tarbiyalaydi va insoniyatning ma‘naviy davomiyligini ta‘minlaydi.

Qur‘oni Karim, Hadis, Tavrot va Injilda “ota” timsoli insoniyat hayotining ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy asoslarini belgilovchi muhim qadriyat sifatida talqin etiladi. Har bir ilohiy kitobda otaning o‘rni nafaqat biologik, balki ruhiy-ma‘naviy mas‘uliyat, rahbarlik va himoya ramzi sifatida yoritiladi. Qur‘onda ota farzand tarbiyasining bosh mas‘uli, oilaning ustuni sifatida ko‘rsatiladi. “Ota farzandiga imon, sabr, odob va taqvoni o‘rgatishga da‘vat etadi”[5] (Luqmon, 13–19-oyatlar). “Alloh ota-onaga ehtiromni buyurib, ota-onangga yaxshilik qil” [5] (Ankabut 8-oyat) deb amr qilinadi. Islomda otalik rahm-shafqat va adolatni birlashtirgan axloqiy yetuklik darajasi sanaladi. Hadisda esa “Farzandingizga chiroyli ism qo‘ying, yaxshi tarbiya bering, halol rizq bilan ta‘minlang” deyiladi – bu otalikning uch asosiy majburiyatini ifodalaydi.

Tavrotda esa ota oilaning ruhiy rahbari sifatida taqdim etiladi. Yahudiylikda “ota o‘g‘liga qonunni o‘rgatmasa, gunoh qilgan bo‘ladi” degan tushuncha mavjud. Demak, otaning vazifasi farzandni diniy bilim, e‘tiqod va axloqiy me‘yorlar bilan tanishtirishdir. Tavrot otani oilaviy barqarorlik, qonun va odil muomala timsoli sifatida e‘tirof etadi.

Injilda otalik tushunchasi yanada yuksak – ilohiy ramz darajasiga ko‘tarilgan. Iso Masih “Osmondagi Otam” iborasini inson va Xudoning munosabatini anglatish uchun ishlatadi. Bu yerda otalik ilohiy muhabbat, kechirim, fidoyilik va rahm-shafqatning oliy timsoli sifatida talqin etiladi.

Injilda ota farzandiga mehr bilan munosabatda bo'lishi, uni jazolash emas, yo'l ko'rsatish orqali tarbiyalashi buyuriladi (Luqo 15:11–32 – “Adashgan o'g'il” masali).

Islom va nasroniylik, shuningdek yahudiylik manbalarida otalik – shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatning eng yuksak ko'rinishi, mehr va adolat uyg'unligini ifoda etadi. Shunday qilib, ilohiy manbalarda otaning o'rni inson hayotining ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi, jamiyatni axloqiy muvozanatda tutuvchi markaziy ustun sifatida talqin etiladi.

Islomda otalik – bu nafaqat biologik yoki ijtimoiy maqom, balki Alloh oldidagi buyuk mas'uliyat, axloqiy burch va ruhiy rahbarlik timsolidir. Ota oilaning poydevori, farzand tarbiyasining yo'l boshchisi va jamiyat barqarorligining kafolatidir. Islom ta'limotida otaning maqomi Qur'on va Sunnatda aniq belgilangan bo'lib, u Alloh tomonidan oilaga rahbarlik, himoya va tarbiya mas'uliyatini yuklagan zot sifatida sharaflanadi. Qur'onda Alloh taolo: «Alloh sizlarni nimadan qaytargan bo'lsa, ularni ham qaytarasizlar. Alloh sizlarni nimaga buyursa, ularni ham buyurasizlar. Ana o'sha, ularni o'tdan saqlash bo'ladi»[5] (Tahrim, 6-oyat), deb marhamat qiladi. Bu oyat otaning eng buyuk burchi – farzandini nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham asrash, unga to'g'ri yo'l ni ko'rsatish ekanini bildiradi.

Ota farzand uchun Allohning rahmatidan bir ko'rinishdir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) otalikni rahm-shafqat, mehr va adolat bilan bog'lagan holda: “Sizlarning eng yaxshilaringiz oilasiga eng yaxshisidir” (Termiziy, “Razo” 11) deganlar. Demak, otaning buyukligi uning oilasiga, ayniqsa farzandiga mehribonligi, odil va rahmdil bo'lishida namoyon bo'ladi. Islomda shafqat – tarbiyaning markaziy tamoyili bo'lib, otaning vazifasi faqat nazorat yoki jazolash emas, balki to'g'ri yo'lga yumshoqlik bilan boshlash, imon va axloq namunasi bo'lishdir.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) o'z farzandlariga va nabiralariga nisbatan nihoyatda mehribon bo'lganlar. U zot Hasan va Husaynni quchoqlab, peshonasidan o'pganlarida, bir sahoba bu holni ajablanib ko'rganida, Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: “Kim rahm qilmasa, unga rahm qilinmaydi” (Buxoriy, “Adab” 18). Bu hadis otalikda mehr va shafqatning ilohiy ahamiyatini ko'rsatadi – farzandga rahm qilgan ota aslida Alloh rahmatining soyasida yashaydi.

Islomda otaning mas'uliyati moddiy ta'minot bilan cheklanmaydi. U farzandiga ilm, odob, halol kasb va e'tiqodni o'rgatishi shart. Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: “Otaning farzand oldidagi haqqi – unga yaxshi ism qo'yish, yaxshi tarbiya berish va unga halol rizq topish”. Bu uchlik – islomiy otalik falsafasining asosidir. Tarbiya, halollik va e'tiqod uyg'un bo'lsa, farzand jamiyatda mas'uliyatli, imonli va odil inson sifatida kamol topadi.

Shunday qilib, islomda otalik – Alloh tomonidan berilgan ishonch va sinovdir. Ota farzandiga mehr, sabr, adolat va taqvo orqali ibrat ko'rsatadi. Ota shunchaki biologik shaxs emas,

balki rahm-shafqat, mas'uliyat va tarbiyaning tirik timsolidir. Alloh nazarida otaning haqiqiy ulug'ligi – farzandini imon, halollik va insoniylik ruhida voyaga yetkazishidir.

Ijtimoiy rollar nazariyasida otaning o'rni va farzandlarni ijtimoiylashtirish jarayonidagi ahamiyati jamiyatning barqaror rivojlanishi va madaniy uzluksizligini ta'minlaydigan eng muhim falsafiy-ijtimoiy masalalardan biridir. Ota shaxsining jamiyatdagi o'rni faqat biologik yoki iqtisodiy jihat bilan cheklanmay, balki u ijtimoiy institut sifatida insonni jamiyatga tayyorlovchi, qadriyatlar tizimini singdiruvchi va ijtimoiy normalarni uzatuvchi subyekt sifatida qaraladi.

Ijtimoiy rollar nazariyasi (J.Mid, R.Linton, T.Parsons, P.Berger va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan) shaxsning jamiyatdagi harakat va xulqini ma'lum "rol"lar orqali ifodalaydi. Har bir inson – ota, farzand, o'qituvchi, rahbar yoki fuqaro sifatida – muayyan ijtimoiy kutishlar va me'yorlarga mos ravishda harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ota roli jamiyatdagi eng qadimiy, eng barqaror va eng ko'p ma'noli rollardan biridir. Ota o'z oilasida rahbar, himoyachi, tarbiyachi va qadriyatlar uzatuvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Ota farzandni ijtimoiylashtirish jarayonida jamiyatning "birinchi maktabi" hisoblanadigan oila tizimida markaziy o'ringa ega. Ota o'z xatti-harakatlari, dunyoqarashi va qadriyatlari orqali farzandiga ijtimoiy me'yorlarni singdiradi. T.Parsonsning "ijtimoiy tizimlar"[6] konsepsiyasida ota "instrumental rol"ni bajaradi, ya'ni u oilaning tashqi dunyo bilan bog'lanishini ta'minlaydi, ijtimoiy javobgarlik, mehnatsevarlik, mas'uliyat kabi qadriyatlarni amalda ko'rsatadi. Bu orqali farzand jamiyatda erkaklik, mehnat, axloq va mas'uliyat haqidagi tasavvurlarni o'zlashtiradi.

Otaning ijtimoiylashuvdagi o'rni, avvalo, axloqiy ibrat orqali amalga oshadi. U farzandga mehnat madaniyatini, insoniy fazilatlarni, vatanparvarlik va diniy e'tiqodni namoyon etadi. Aynan otaning amaliy namunasi farzandni o'zligini anglashga, ijtimoiy rolini to'g'ri bajarishga tayyorlaydi. Shu sababli sotsiologik tadqiqotlarda ota – "ijtimoiy mas'uliyat modeli" sifatida talqin etiladi.

Bundan tashqari, otaning emosional barqarorlik va intizomni shakllantirishdagi roli ham muhimdir. Farzand otasidan qat'iyat, sabr, adolat, muvozanat va irodani o'rganadi. Bu sifatlar insonning ijtimoiy muvofiqligini ta'minlaydi. Agar otaning ijtimoiy roli zaiflashsa, oilaviy tizimda bo'shliq paydo bo'ladi, farzandning ijtimoiy identifikatsiyasi va qadriyat tizimi beqarorlashadi.

Ijtimoiy rollar nazariyasida ota – jamiyat va shaxs o'rtasidagi bog'lovchi zveno bo'lib, uning farzandni ijtimoiylashtirishdagi ahamiyati beqiyosdir. U orqali jamiyat qadriyatlari avloddan avlodga o'tadi, axloqiy me'yorlar mustahkamlanadi va shaxs ijtimoiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllanadi. Shu bois otalik – ijtimoiy tizimning tayanchi, madaniy uzluksizlikning kafolati va jamiyat ma'naviyatining asosi hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda otalik fenomeni tub ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida yangi shakllarga ega bo'lmoqda. Ijtimoiy modernizatsiya, globalizatsiya, gender tenglik siyosatining

kuchayishi hamda mehnat migratsiyasi jarayonlari natijasida otalikning an'anaviy modeli transformatsiyaga uchramoqda. Bu jarayon, bir tomondan, oiladagi rollarni qayta taqsimlash va gender adolatini ta'minlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan, "yo'qolgan otalik" deb ataluvchi ijtimoiy hodisani keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, gender tenglik g'oyasi zamonaviy oilaning tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Avvallari ota oilaning rahbari, iqtisodiy ta'minotchisi va qaror qabul qiluvchi markaz sifatida talqin etilgan bo'lsa, bugungi kunda bu rol ko'p hollarda ona bilan teng taqsimlanmoqda. Ayollarning mehnat bozorida faol ishtiroki, ta'lim va siyosatdagi o'rni ortgani sari, otalikning ijtimoiy funksiyalari ham qayta talqin qilinmoqda. Endilikda ota nafaqat boquvchi, balki farzand tarbiyasida bevosita ishtirok etuvchi, emosional yaqinlikni ta'minlovchi, mehribon shaxs sifatida qaralmoqda. Bu o'zgarish – patriarxal modeldan demokratik oilaviy modelga o'tishning belgisi sifatida baholanadi.

Ikkinchidan, migratsiya jarayoni otalik institutiga katta zarba bermoqda. Ishlab topish maqsadida xorijga ketgan otalar o'z farzandlaridan uzoqlashmoqda, natijada "masofaviy otalik" holati yuzaga kelmoqda. Bu esa farzandning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoqda ishlovchi otalar oilaviy qarorlar, tarbiya va ma'naviy nazoratdan chetda qoladi, bu esa farzandlarda bo'shliq, yetimlik hissi va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, migratsiya natijasida otalikning "moddiy ta'minot" funksiyasi kuchaygan bo'lsa-da, "tarbiyaviy" va "emosional" funksiyalari zaiflashmoqda.

Uchinchidan, zamonaviy davrda (absent fatherhood) "yo'qolgan otalik"[7] hodisasi tobora keng tarqalmoqda. Bu atama o'z farzandining hayotida mavjud bo'lmagan, lekin biologik jihatdan ota bo'lgan shaxslarni anglatadi. Ijtimoiy befarqlik, oilaviy ajralishlar, individualizm va iste'molchilik qadriyatlarining kuchayishi bu jarayonni tezlashtirmoqda. "Yo'qolgan otalik" nafaqat jismoniy yo'qlik, balki ruhiy va axloqiy uzoqlikni ham bildiradi. Natijada farzandlar erkaklik, mas'uliyat va ijtimoiy burch haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda namunasiz qolmoqdalar.

Ota shaxsining ijtimoiy ong, mas'uliyat va identifikatsiyaga ta'siri insonning shaxs sifatida shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Ota – oilaviy tizimning markaziy figuralaridan biri sifatida nafaqat moddiy ta'minotchi yoki himoyachi, balki ma'naviy yo'lboshchi va axloqiy mezonlarning tashuvchisidir. Ijtimoiy ongda ota obrazi kuch, qat'iyat, adolat, mas'uliyat va mehr timsoli sifatida mustahkam o'rin egallaydi. Bu obraz orqali farzandlar jamiyatdagi rollarni, me'yorlarni va qadriyatlarni anglaydilar. Ota o'z xatti-harakatlari, qarorlari, so'zlari bilan farzand uchun ijtimoiy ongning dastlabki modeli bo'lib xizmat qiladi.

Mas'uliyat kategoriyasi otalik mohiyatining asosiy jihatlaridan biridir. Ota oila a'zolari, ayniqsa, farzandlari oldida mas'uliyatni his qilgan sari, jamiyatdagi barqarorlik, axloqiy muvozanat va ijtimoiy tartib mustahkamlanadi. Ota mas'uliyatining kuchayishi ijtimoiy ongda "javobgarlik madaniyati"ni shakllantiradi, bu esa har bir insonning o'z rolini anglashiga yordam beradi. Shunday qilib, otalik – jamiyatda shaxsiy manfaatlardan ustun bo'lgan umumiy burch hissini kuchaytiruvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Identifikatsiya jarayonida esa ota shaxsining ta'siri yanada chuqurroqdir. Farzand o'zini avvalo ota orqali aniqlaydi: uning nutqi, dunyoqarashi, mehnatga, insonlarga munosabati bolaning ichki "men"ini shakllantiradi. Psixologik va sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ota bilan sog'lom emotsional aloqaga ega farzandlarda o'zlikni anglash, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy me'yorlarga sodiqlik kabi sifatlar kuchli rivojlanadi. Aksincha, "yo'qolgan otalik" holati ijtimoiy identifikatsiya inqiroziga olib keladi, bu esa yoshlarning beqarorligi va mas'uliyatsizlik holatlarini kuchaytiradi.

Shunday qilib, otalik – shunchaki biologik yoki oilaviy maqom emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, mas'uliyatni targ'ib etuvchi va identifikatsiya jarayonini boshqaruvchi muhim ijtimoiy-madaniy institutdir. Ota shaxsining mavjudligi jamiyatda ijtimoiy uyg'unlik, axloqiy barqarorlik va ma'naviy yetuklikning kafolatidir.

Ota timsoli orqali avlodlararo axloqiy meros va qadriyatlarning uzatilishi insoniyat madaniy taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy-madaniy mexanizmlaridan biridir. Ota – oilaviy ijtimoiylashuv jarayonining markazida turuvchi, qadriyatlarni, an'analarni va axloqiy me'yorlarni bir avloddan boshqasiga o'tkazuvchi shaxsiy timsoldir. U nafaqat farzandlarining moddiy hayotini ta'minlaydi, balki ularning ma'naviy-axloqiy dunyosini shakllantiruvchi "ma'naviy ko'pri" vazifasini bajaradi. Shu bois otalik hodisasi – bu insoniyatning axloqiy xotirasi, tarixiy tajribasi va ijtimoiy g'oyalarining uzviy davomiyligini ta'minlovchi kuchdir.

Ota o'z farzandlariga hayotiy qarash, mehnatsevarlik, halollik, adolat, mehr, sabr va mas'uliyat kabi qadriyatlarni nafaqat so'z bilan, balki shaxsiy namuna orqali o'rgatadi. Farzandlar ko'pincha onadan emotsional iliqlikni, otadan esa axloqiy mezon va ijtimoiy yo'nalishni oladilar. Shu jarayonda otaning hayotiy tajribasi va xatti-harakati farzand uchun "amaliy falsafa" sifatida xizmat qiladi. Bu meros, o'z navbatida, jamiyatda axloqiy barqarorlikni, qadriyatlarga sadoqatni va ma'naviy uzluksizlikni ta'minlaydi.

Sotsiologik nuqtayi nazardan, ota timsoli avlodlararo qadriyatlar uzatishda ijtimoiy nazorat va tarbiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U jamiyatda qabul qilingan me'yor va urf-odatlarining bajarilishini farzandlar ongiga singdiradi. Ota farzandning dunyoqarashida "jamiyat ovozi" sifatida yangraydi: u orqali milliy o'zlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va diniy bag'rikenglik

qadriyatlari mustahkamlanadi. Ayniqsa, o'zbek xalq an'analarida ota timsoli – "nasl obro'si", "ota duosi", "ota vasiyati" kabi tushunchalar orqali ma'naviy merosning muqaddas ramziga aylangan.

Falsafiy jihatdan olganda, ota timsoli – bu "transsendent bog'lovchi", ya'ni shaxsni o'z ildizlari, ajdodlar ruhi bilan birlashtiruvchi ma'naviy poydevordir. Farzand otaning orzularini davom ettirar ekan, u o'zini tarixiy jarayonning davomchisi sifatida anglaydi. Shu yo'l bilan axloqiy meros – faqat so'z bilan emas, balki hayotiy amaliyot, xulq, va e'tiqod orqali avloddan avlodga o'tadi.

Demak, ota timsoli insoniyat axloqiy madaniyatining tayanch ustunlaridan biridir. U orqali jamiyat o'z ma'naviy xotirasini tiklaydi, qadriyatlarning davomiyligini ta'minlaydi va yangi avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, mas'uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazadi. Shu bois, otalik – bu faqat biologik yoki ijtimoiy maqom emas, balki ma'naviy merosni abadiylashtiruvchi, jamiyatni birlashtiruvchi va qadriyatlarni saqlovchi ulug' institutdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda birinchidan, otalik fenomeni diniy jihatdan inson hayotida ilohiy ishonch va mas'uliyatni ifodalovchi muqaddas burchdir. Islom ta'limotida ota farzand tarbiyasi, e'tiqod va axloqiy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy shaxs sifatida talqin qilinadi. Shu bois, otalik diniy qadriyatlar tizimining ajralmas tarkibiy qismidir.

Ikkinchidan, ijtimoiy nuqtai nazardan otalik – oilaning barqarorligini, jamiyatning axloqiy va ma'naviy muvozanatini ta'minlovchi ijtimoiy institutdir. Ota shaxsining faol roli oila a'zolari o'rtasida mas'uliyat, hamjihatlik va birdamlikni kuchaytiradi. Shu orqali jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlar shakllanadi.

Uchinchidan, aksiologik jihatdan otalik – muhabbat, fidoyilik, sadoqat va halollik kabi yuksak insoniy qadriyatlarning ifodasidir. Ota bu qadriyatlarni shaxsiy namunasi orqali avloddan-avlodga yetkazadi. Shu tariqa, otalik fenomeni qadriyatlar uzluksizligini ta'minlovchi ma'naviy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, otalik fenomeni shaxs va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni mustahkamlovchi axloqiy tamoyildir. Ota o'zining harakatlari bilan insoniylik mezonlarini belgilaydi, bu esa jamiyatning ma'naviy uyg'unligiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Yangi O'zbekiston sharoitida otalik fenomenini rivojlantirish milliy ma'naviyatni tiklash, oila institutini mustahkamlash va yosh avlodni sog'lom e'tiqodda tarbiyalashning strategik yo'nalishidir. Shu sabab, otalik madaniyatini targ'ib etish davlat va jamiyat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova G.A. Oila ma'naviy muhiti barqarorligida ota burchi va mas'uliyati (ijtimoiy-falsafiy tahlil) diss. avtoreferati. – Toshkent.: "Tipograff MCHJ", 2025. –B.17.

2. Конфуцианский трактат «Чжун юн»: Переводы и исследования / сост. А.Е. Лукьянов; пер. Д. Конисси, В.Г. Бурова, А.Е. Лукьянова, В.Б. Югай. М.: Вост. лит., 2003. – С.247.
3. Karimova G.A. Oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri. FarDU. ilmiy xabarlar № 5. – Farg'ona.: 2023 – B.95.
4. Фромм Э. Инсон қалби. Унинг эзгулик ва ёвузликка бўлган лаёқати. Тошкент: Ўзбекистон. 2016. –Б.40.
5. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. 4-кайта нашр. –Тошкент.: “Сано-стандарт”, 2021.
6. Жукоцкая А.В. и [др.]. Модусы социального и концепт человека (философские размышления): коллективная монография / отв. ред. Ю.Ю. Джуад. Москва: МГПУ, «Галлея-принт», 2024. – С.14.
7. Samuels A. The Plural PsychePersonality, Morality and the Father. “Routledge”, 2015. – P.114.
8. Абсатторов, Б. М. (2022). Тасаввуф–ўз-ўзини такомиллаштириш ва ҳақиқатни билиш йўли сифатида. Gospodarka i Innowacje, 30, 167-173.
9. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 199-204.
10. Mamarasulovich, Absattorov B., and Tashmurodov M. I. O'G'Li. "Genetic Markers and Evolutionary Manifestations of the “Nafs” Concept." World Bulletin of Social Sciences, vol. 29, 6 Dec. 2023, pp. 16-19.
11. Mamarasulovich, A. B. (2022). Religious and Philosophical Aspects of Human Moral Development. Conferencea, 197-201.